2. Andreev, A., Doronin, A., Kachenkova, V., Norov, B., Mirkhasilova, Z. Fire alarm systems construction on artificial intelligence principles/ E3S Web of Conferences, 2023, 365, 04028
3. Saidkhujayeva N., Khojiev A., Mirkhasilova Z., Muxammad-Ali K., Norkuzieva N. An Interactive Method in the Study of the Topic "Research of Fire Extinguishing Equipment"
4. Muratov A., Melikuziev S. Technology of formation of combined products of meliorative purpose. CONMECHYDRO – 2020 IOP Conf. Series: Materials Science and Engineering 883 (2020) 012060 IOP Publishing doi:10.1088/1757-899X/883/1/012060
5. Khasanov I., Muratov A. Productivity of screw working together with the planner's scoop. July 2020 IOP Conference Series Materials Science and Engineering 883(1):012217. DOI: 10.1088/1757-899X/883/1/012217
6. Choriev J., Muratov A., Yangiev A., Muratov O., Karshiev, R. Design method for reinforced concrete structure durability with the use of safety coefficient by service life period. July 2020 IOP Conference Series Materials Science and Engineering 883(1):012024. DOI: 10.1088/1757-899X/883/1/012024
7. Muratov A., Muratov O., Melikuziyev S. Operational control of energy consumptions of reclamation machines. Том 614 December 2020 IOP Conference Series Earth and Environmental Science 614(1):012042. DOI: 10.1088/1755-1315/614/1/012042
8. Khamidov M., Muratov A. Effectiveness of rainwater irrigation in agricultural crops in the context of water resources. том 1030, January 2021 IOP Conference Series Materials Science and Engineering 1030(1):012130. DOI: 10.1088/1757-899X/1030/1/012130
9. Kan E., Muratov A., Yusupov M., Ikramov N. Calculation of water hammer on the pressure pipeline of modernized irrigation pumping station. том 1030, January 2021 IOP Conference Series Materials Science and Engineering 1030:012127. DOI: 10.1088/1757-899X/1030/1/012127

ISHLAB CHIQRISHDA MEHNAT MUHOFAZASI MUAMMOLARI

ПОСЛЕДСТВИЯ И ПРИЧИНЫ ВЗРЫВОВ ПЫЛИ И ГАЗА В УГОЛЬНЫХ ШАХТАХ НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ЛИКВИДАЦИИ

Юлдашев Орунбай Рахманбердиевич,
кандидат технических наук, профессор,
Института гражданской защиты,
Курбонов Азимжон Журабой угли,
ассистент,

Национальный исследовательский университет «Ташкентский институт инженеров
иригации и механизации сельского хозяйства».

Аннотация. В статье изучен уровень травматизма по возрастным категориям персонала угольных шахт, в научно-исследовательской работе рассматриваются сотрудники до 20 лет - 20%, от 20 до 59 лет - 55,4%, старше 60 лет – 24,6% и выше. В результате на угольных рудниках были приняты меры по охране труда работников по видам производственной деятельности, направленные на улучшение условий труда на рабочих местах и достигнуто определенное снижение уровня травматизма работников, заболеваемости профессиональными болезнями.

Ключевые слова: рабочее место, условия труда, травматизм, несчастный случай, риск, освещение, охрана труда, события, разработки.

CONSEQUENCES AND CAUSES OF DUST AND GAS EXPLOSIONS IN COAL MINES SCIENTIFIC BASIS OF LIQUIDATION

Yuldoshev Orunbay Rachmanberdievich,

Institute of Civil Protection,

Kurbonov Azimjon Juraboy ugli,

National Research University "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers".

Annotation. The article observes injury rates by age categories of personnel at coal mines, research work studies of employees under 20 years - 20%, from 20 to 59 years - 55.4%. older than 60 years -24.6% and above. As a result, measures were taken to protect workers by types of production activities at the coal mines, aimed at improving working conditions at the workplace and achieved a certain reduction in the level of injuries of workers, the incidence of occupational diseases.

Keywords: workplace, working conditions, injuries, accident, risk, illumination, labor protection, events, developments.

KO'MIR KONLARIDA CHANG VA GAZ PORTLASH SABAB VA OQIBATLARINI OLDINI OLISHNING ILMIY ASOSLARI

Yuldashev O'runbay Raxmanberdievich,

texnika fanlari nomzodi, professor,

Fuqaro muhofazasi instituti,

Qurbonov Azimjon Juraboy o'g'li ,

assistant,

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti.

Annotatsiya. Maqolada ko'mir konlari xodimlarining yosh toifalari bo'yicha jarohatlar darajasi o'rganilgan, ilmiy-tadqiqot ishlarida 20 yoshgacha bo'lgan xodimlar - 20%, 20 yoshdan 59 yoshgacha - 55,4% ko'rib chiqilgan. 60 yoshdan oshganlar 24,6% va undan yuqori. Natijada, ko'mir konlarida ishchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan ishlab chiqarish faoliyati turlari bo'yicha mehnatni muhofaza qilish choralari ko'rildi va ishchilarning shikastlanishi, kasbiy kasalliklar darajasining ma'lum darajada pasayishiga erishildi.

Kalit so'zlar: ko'mir koni, ish joyi, ish sharoitlari, jarohatlar, baxtsiz hodisalar, xavf, yorug'lik, mehnatni muhofaza qilish, hodisalar, o'zgarishlar.

Введение. Взрывы газа и угольной пыли относятся к авариям с наиболее тяжкими последствиями в экономическом и социальном плане. Мировая и отечественная практика угледобычи сопровождалась катастрофическими последствиями взрывов с большим числом смертельно травмируемых: 1998 г, Франция, шахта Курьер, 1230 человек; 1907 г, США, шахта Иоленд, г. Питсбург, 500 человек; 1907 г, Япония, Тогоока, провинции Бунго, 471 человек; 1908 г, шахта № 4-бис, Юзовка, Донбасс, 264 человека; 1908 г, Рыковский рудник, Юзовка, Донбасс, 273 человека; 1913 г, Англия, Юнивесал, Кардифф, Индия, Бохори, 375 человек; 1997 г, Япония, Микава, 217 человек; 1992 г, Родезия, Ваньки, 400 человек; 1997 г, Индия, Часнала, 431 человек; 1999 г, Перу, Наска, 205 человек; 1997 г, Турция, Армушук, 217 человек; 2000 г, шахта им. Н.П. Баракова ГХК, 472 человека; 2001 г, Китай, шахта Хонкейко (в период оккупации Японией Маньчжурии), Гимберг, 404 человек; 2001 г, шахта № 13-бис, Макеевка, Донбасс, 101 человек; 2005 г, 1567 человек; 2006 г, Германия,

«Краснодонуголь», 80 человек (взрыв угольной пыли); 2001 г и 2002 г, шахта им. А.Ф. Засядько, соответственно 55 и 61 человек и другие случаи взрывов на отечественных шахтах и шахтах почти всех угледобывающих стран.

Методы. Поражающими факторами при взрывах являются ударная волна, высокая температура газообразных продуктов взрыва, содержащих токсичные газы, в основном оксид углерода. Основным травмирующим фактором при взрыве в 75% случаев является отравление оксидом углерода, остальные 25% приходится на ожоги и непосредственное воздействия ударной волны.[1]

Наиболее опасны взрывы метана с участием угольной пыли, так как имеют, во-первых, значительно большую зону поражения вследствие перехода во взвешенное состояние и участие во взрыве пыли отложившейся на стенках выработки, во-вторых, содержание окиси углерода в газообразных продуктах взрыва достигает 1-3% при снижении кислорода до 1-10%. По данным МакНИИ за последние десятилетия

на шахтах Узбекистана практически во всех взрывах, в том числе с участием пыли, участвовала метановоздушная смесь. Только в одном случае воспламенение и взрыв угольной пыли произошел от открытого пламени керосинореза без участия метана.[2]

Температура взрыва метановоздушной смеси в горных выработках изменяется от 1850 °С - в начале воспламенения до 2600-2650 °С - при развитии теплового взрыва (взрывного горения).

Давление во фронте ударной волны взрыва может составлять 2,53 МПа при безопасном давлении для человека 0,006 МПа.[3]

Эффект нарастания давления во фронте пламени - ударной волны по мере удлинения пути пробега и в местах большого гидравлического сопротивления, приводит к тому, что наибольшие разрушения имеют место не в местах возникновения воспламенения и взрыва, а на границе очага аварии и в местах сужений, крутых поворотов, загромождений выработок и т. п.[4] Поэтому при определении места начального очага исследуют проявления характерных признаков - отброс предметов, обугливание, копать и др. При этом также учитывается действие обратной ударной волны и вторичного пламени дожигания оставшегося на пути взрыва метана при поступлении к нему кислорода из прилегающих выработок и связанным с этим возможностью вторичного взрыва.[6]

Результаты и обсуждение. Определения безопасного расстояния от эпицентра взрыва, на котором происходит снижение давления на фронте ударной волны до 0,006 МПа производится по расчетной схеме сети горных выработок. Снижение давления ударной волны оценивается безразмерным коэффициентом K затухания, значение которого зависит от избыточного давления ΔP_{ϕ} во фронте ударной волны и относительного расстояния L ее распространения. Значение L определяется для каждого участка сети выработок, начиная от очага воспламенения, по формуле[10]




Рисунок 1 - Графики для определения коэффициента затухания ударной волны

$$L = \sum_{i=1}^m L_i / S_i, \text{ м}, \quad (1)$$

где L_i - длина i -й выработки, м; S_i - площадь поперечного сечения i -й выработки, м^2 ; m - число выработок по пути

ударной волны.

Для прямолинейных участков выработок относительной протяженности L по графику 1 (рис. 1) определяется величина ΔP_{ϕ} . В случаях $L \geq 65$ м, а также для сильно загроможденных выработок, при $L > 15$ м значение ΔP_{ϕ} принимается равным 2,8 МПа. Затем по графику 2 для $\Delta P_{\phi} > 0,1$ МПа определяется значение K , а при $\Delta P_{\phi} < 0,1$ МПа значение K вычисляется по формуле [8]

$$K = 1 + 9 \Delta P_{\phi}. \quad (2)$$

На расстоянии X от начального сечения выработки избыточное давление ударной волны определяется по формуле

$$\Delta P_x = \Delta P_{\phi} \exp(-4K\alpha X / S), \quad (3)$$

где коэффициент 10, 20, 30, 40, 50, 60. L , м аэродинамического супротив- линия выработки.[9]

В выработке с действующим пожаром расчетное значение P_{ϕ} в конце участка разогрева выработок увеличивается в 1,5 раза и принимается за начальное для последующего участка.

Таблица 1.

Распределение взрывов по местам происшествий [7]

Наименование горных выработок (мест происшествий взрывов)	Удельный вес числа взрывов, %
Проходческие и нарезные (тупиковые) выработки	35,0
Очистные выработки (лава)	28,5
Исходящие (вентиляционные) выработки из очистных забоев	23,0
Выработки с поступающей струей воздуха на участки	7,3
Камеры и бункеры	6,2

Таблица 2.

Распределение взрывов по причинам образования взрывоопасной смеси

Причины образования взрывчатой метановоздушной смеси	Удельный вес числа взрывов, %
Выделение метана из угля и породного массива в тупиковых выработках и забоях при нарушении проветривания	4,03
Выделение метана из угля и массива в очистных забоях (лавах) при нарушении проветривания	22,2
Внезапные выделения метана в выработки, вызванные газодинамическими явлениями	17,6
Поступление метана в лавы и подготовительные выработки из выработанного пространства	17,0
Накопление метана в выработках при нарушении общешахтной (участковой) вентиляции	5,5
Образование взрывчатой смеси в бункерах и камерах из-за нарушения проветривания	3,7

Распределение взрывов по местам происшествий и причинам образования взрывоопасной смеси приведено в таблицах.

Основные причины образования взрывчатой смеси в подготовительных, очистных забоях, бункерах и камерах связаны с нарушением проветривания, в основном, из-за остановок ВМП, сверхнормативных утечек воздуха или закорачивания воздушной струи на участках, когда в забои (камеры) свежего воздуха поступает в 2-4 раза меньше расчетного его количества. В более 90% взрывов причины образования взрывчатой смеси носят организационный характер (ВМП не резервирован, утечки воздуха в трубопроводе, закорачивание струи воздуха в лавах, отсутствие замера метана перед производством взрывных работ и др.).[6]

Распределение взрывов по источникам воспламенения приведены в таблице 3.

Таблица 3.

Распределение взрывов по источникам воспламенения

Наименование источников воспламенения	Удельный вес числа взрывов, %
Электроэнергия	46,4
Фрикционное искрение и трение	19,4
Взрывные работы	16,7
Самовозгорание угля и пород	7,4
Огневые работы	4,6
Курение в выработках	4,6
Пневмоэнергия	0,9

Около половины всех взрывов происходит в результате электрического искрения при нарушенной взрывозащите электрооборудования, повреждении кабелей, при коротких замыканиях, в основном, при неисправной защите от токов короткого замыкания и от утечек тока на землю.[4]

Фрикционное искрение от трения режущего инструмента по крепким породам происходит при отсутствии пылеподавления водой или при использовании систем орошения кустарного изготовления. [10]

Несмотря на особую опасность применения накладного открытого заряда при взрывных работах по дроблению негабаритов горных пород, этот опасный вид работы имеет место.

Некачественное (разовое) составление паспортов БВР, отступление от паспортов, неудовлетворительная забойка шпуров, некачественные ВВ служат причиной выброса пламени и выгорания ВВ и являются источником поджигания и взрыва метановоздушной смеси.[2]

Значительную опасность, как источник воспламенения взрывчатой смеси, представляет самовозгорание угля. В большинстве своем самовозгорание происходит в выработанном пространстве, где имеют место геологические нарушения, оставшийся уголь, метан и не контролируется его содержание.[4]

За последние десятилетия произошло пять взрывов из-за курения в шахте и пять взрывов во время выполнения огневых работ.

Взрывы метана происходят также при ликвидации газобильных пожарных участков.[11]

Основными возможными осложнениями ликвидации последствий взрывов являются: нарушение проветривания вследствие разрушения вентиляционных сооружений; продукты взрыва в непроветриваемых выработках имеют высокую температуру до 50°C; высокая вероятность возникновения очагов возгорания, сопровождающихся дополнительным поступлением продуктов горения и возможными повторными взрывами метана; обрушение горных пород в результате взрыва (взрывов).[7]

Выводы. 1. Оптимальное планирование профилактических мероприятий, направленных на снижение заболеваемости работников, должно основываться на функционировании автоматизированной системы управления.

2. Система управления мероприятиями по охране труда, направленная на снижение заболеваемости, должна содержать блоки статистической обработки информации, моделирования количественных уровней заболеваемости, связанных с производством, классификации и оптимизации профилактических мероприятий.

3. Оптимизация мероприятий, направленных на снижение заболеваемости работников, должна основываться на критериях максимального эффекта для здоровья и осуществляться с учетом технических и экономических ограничений.

4. Автоматизированная система управления, включающая этапы статистической обработки и моделирования.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Kurbonov, A.J, Yuldoshev O,R, Saidxonova, N,J, Oblakulov, S,T, Djumakulova, K,A Analysis of the optimization of labor protection measures in engineering work E3S Web of Conferences., 2023, 443, 04013
2. Kurbonov A.J, Saidxonova, N,J, Oblakulov, S,T, Djumakulova, K,A, Nazarova, N,N Analysis of optimization of labor protection measures aimed at improving workplace conditions E3S Web of Conferences .,2024, 471, 01005
3. Бессонов В.В. и другие. Некоторые принципы и результаты разработки автоматизированной системы управления техногенным воздействием на окружающую среду и человека как подсистему. Металлургический завод.- В кн.: Проблемы контроля и защиты от загрязнений атмосферы. 2014. 167 с.
4. Багров А. А., Бородин Г. П., Раздорозный А. А. проблемы управления персоналом и социального развития в производственном объединении, на предприятии (Респ. семинар 16, 17 ноября 2017 г.). Таллинн 2017 107 с.
5. Основные вопросы надежности и долговечности машин. Исследования. Привилегия: МАДИ, 1969. 428 с.
6. Кузнецов Е.А., Ж.А. Абенова «Перспективы восстановления Арала» 235 стр.

ГИДРОТЕХНИКА ИНШОТЛАРИДАГИ АВАРИЯЛАР САБАБЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ОҚИБАТЛАРИ

Хайдаров Туйғун Анварович,

техника фанлари номзоди, доцент,

“Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти”

Миллий тадқиқот университети,

Рахматуллаева Гулнора,

кичик илмий ходим,

Ирригация ва сув муаммолари илмий-тадқиқот институти.

Аннотация. Гидротехник иншоотларлар билан боғлиқ бўладиган авариялар катта ҳалокатли сув тошқинларига сабаб бўлиб, бир қатор ижтимоий ва иқтисодий оқибатларга олиб келади. Илмий адабиётларда ушбу оқибатларнинг долзарблигини аниқлаш учун дунёнинг турли мамлакатларидаги йирик воқеалар бўйича бир қатор нашрларнинг таркибий таҳлили ўтказилди. Амалга оширилган таҳлиллар натижасида аварияга олиб келучи асосий сабаблар келтирилган ва инсонларни қурбон бўлишда тўғри ҳаракатланишнинг катта роли ва зарур тавсиялар келтирилган.

Калит сўзлар: авария, гидротехник иншоот, zilzila, кўчки, оқибат, тошқин, тўғон, тўфон, фавқулодда вазият, хавф, эвакуация.

ПРИЧИНЫ АВАРИЙ НА ГИДРОТЕХНИЧЕСКИХ СООРУЖЕНИЯХ И ИХ ПОСЛЕДСТВИЯ

Хайдаров Туйғун Анварович,

кандидат технических наук, доцент,

Национальный исследовательский университет “Ташкентский институт инженеров

ирригации и механизации сельского хозяйства”,

Рахматуллаева Гулнора,

младший научный сотрудник,

Научно-исследовательский институт Ирригации и водных проблем.

Аннотация. Аварии на гидротехнических сооружениях приводят к крупным катастрофическим наводнениям с рядом социальных и экономических последствий. Используя научной литературы были изучены самые крупные гидротехнические аварии в различных странах мира. В результате проведенного анализа приведены основные причины гидродинамических аварий, приведшие к гибели людей, а также приведены необходимые рекомендации по правильному действию в чрезвычайных ситуациях.

Ключевые слова: авария, гидротехническое сооружение, землетрясение, оползень, последствие, наводнение, плотина, паводок, чрезвычайная ситуация, опасность, эвакуация.

CAUSES OF ACCIDENTS AT HYDRAULIC STRUCTURES AND THEIR CONSEQUENCES

Khaydarov Tuygun Anvarovich,

candidate of Technical Sciences,

National Research University “Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers”,

Rakhmatullayeva Gulnora,

junior research assistant,

Research Institute of Irrigation and Water Problems.

Annotation. Accidents at hydraulic structures lead to major catastrophic floods with a number of social and economic consequences. Using the scientific literature, the largest hydraulic accidents in various countries of the

world were studied. As a result of the analysis, the main causes of hydrodynamic accidents that led to the death of people are given, as well as the necessary recommendations for the correct action in emergency situations are given.

Keywords: accident, hydraulic structure, earthquake, landslide, consequence, flood, dam, flood, emergency, danger, evacuation.

Кириш. Бизнинг Республикамизда қишлоқ хўжалигида суғорма деҳқончилик кенг қўлланилади. Ҳам аҳолини, саноатни ва қишлоқ хўжалигини оби ҳаёт-сув билан таъминлаш мақсадида кўп гидротехник иншоотлар фаолият кўрсатмоқда. Булар билан бўладиган авариялар давлатимизга катта иқтисодий зарар келтириш билан бирга фуқароларни бевақт вафот этишига ҳам сабаб бўлмоқда. Мақолада кўтарилган муаммо шу сабабга кўра ҳам ўта долзарб ҳисобланади.

Муаммонинг қўйилиши. Гидротехник иншоотларидаги авария сабабларини ва бу фалокат сабаб одамларни ҳалок бўлиш ҳолатларини ўрганиш натижасида бу каби йўқотишларни камайтириш учун зарур бўлган чора-тадбирлар ишлаб чиқиш имконини беради.

Методология. Гидротехник иншоотлардаги авариялар илмий манбаларда чоп этилган айрим дунё мамлакатларда содир бўлган ҳалокатли авариялар бўйича олинган статистик маълумотлар асосида таҳлил қилинди.

Тадқиқот натижалари. Турли синфларга мансуб ва мақсадлардан қўлланиладиган гидротехника иншоотлари миллий иқтисодиётнинг муҳим объектларидан ҳисобланади. Гидротехника иншоотлари атом, энергетика ва металлургия саноатларида, қишлоқ хўжалигида, сув транспорти тизимида, балиқчилик, сув таъминоти ва канализация, гидромелиорация ва бошқа иқтисодиёт тармоқларида катта роль ўйнайди. Барча гидротехника иншоотлари, у ёки бу даражада сув массасининг катта кинетик энергиясини сақлайди. Масалан, Чорвоқ, Туямўйин, Андижон, Тўпаланг, Сардоба ва бошқа сув омборлари катта миқдорда сув массасига эга. Бу сув массалари экстремал вазиятларда (аварияларда) катта ҳудудларга ҳалокатли таъсир кўрсатади. Яна шуни эътиборга олиш керакки, гидротехника иншоотлари асосан аҳоли зич жойлашган ҳудудлар, саноат зоналари ва инфратузилма тизими ривожланган ҳудудларга қурилган ва қурилоқда, бу ҳол фавқулодда вазиятлар оқибатларини яна оғирлаштиради[1,2].

Гидротехника иншоотлари билан боғлиқ авариялар доим кенг қўламли оқибатлар билан бирга келади: одамларнинг ўлими, уйларнинг ва иқтисодий объектларнинг вайрон бўлиши, атроф муҳитнинг ёмонлашиши ҳамда деградацияси ва бошқалар. Дунё статистикасига кўра сўнгги 100-120 йиллар ичида яъни, 1900 йилдан бери йиллик бетон тўғонларнинг вайрон бўлиши ва шикастланиши хавфи $0,34 \cdot 10^{-4}$ ва $0,45 \cdot 10^{-3}$, ўз навбатида, одамлар ўлими боғлиқ йиллик глобал таваккал кўрсаткичи барча турдаги тўғонлар аварияси учун $5,1 \cdot 10^{-8}$ га тенг. Замонавий тўғонларнинг аварияси натижасида одамлар ўлими ва моддий йўқотишлар қўламли табиий офатларнинг оқибатлари қўламли билан таққослаганда деярли тенгдир[3].

7 август 1994 йилда Бошқирдистоннинг Белорецкий

туманида Тирлянский сув омборининг тўғони бузилди ва 8,6 миллион кубометр сув фавқулодда оқизилди. Тошқин зонасида тўртта аҳоли пункти бор эди, 85 та турар-жой биноси бутунлай вайрон бўлди, 200 та уй қисман вайрон бўлди. Тўғон натижасида 29 киши ҳалок бўлди, 786 киши уйсиз қолди.

18 август 2002 йилда Германиянинг Эльба дарёси оқиб ўтадиган Виттенберг шаҳри яқинида кучли сув тошқини туфайли еттига ҳимоя тўғони вайрон қилинган. Шаҳарга тўлқин кўтарилди, 40 минг киши зудлик билан эвакуация қилинди. 19 киши ҳалок бўлди, 26 кишиёса бедарак йўқолди.

11 февраль 2005 йил тунда Покистоннинг Жануби-ғарбий қисмидаги Белужистон вилоятида кучли ёмғир туфайли Пасни шаҳри яқинида 150 метрли гидроэлектр станцияси тўғони ёрилиб кетди. Натижада бир нечта қишлоқларни сув босди, 135 дан ортиқ киши вафот этди.

1 май 2020 йилда Ўзбекистоннинг Сирдарё вилоятида содир бўлган Сардоба тўғонининг бузилиши натижасида катта авария содир бўлди. Сардоба тўғони ёш қурилиш бўлиб, уни қуриш бўйича ишлар 2009-2017 йилларда амалга оширилган. У текисликда маълум технология ёрдамида қурилган. Лойиҳанинг қиймати 404 миллион долларга баҳоланган эди. Сардоба тўғонининг бузилиши мамлакатга катта зарар етказди. Ўзбекистоннинг учта туманидаги ерлар сув остида қолди. 5000 бино зарар кўрди. Чегара ҳудудларида 14 та аҳоли пунктлари сув остида қолди, 30 мингдан ортиқ киши эвакуация эвакуация қилинди[4,5].

Сўнгги йилларда дунё бўйича ўртача йиллик ҳаво ҳароратининг ошиб бориш ҳудудлар иқлимни ўзгаришига олиб келмоқда. Бунинг натижасида аномал табиий ҳодисаларнинг содир бўлиш частотаси ва қўламли ошиб бормоқда. Бунга мисол қилиб Россияда 2009 йилдаги Саяно-Шушен гидротехника иншоотининг авариясини мисол қилиб олиш мумкин. Бу авария оқибатида 75 киши ҳалок бўлади ва давлатга 21 миллиард рубль зиён келтирди. 1930...1950 йилларда қурилган гидротехника иншоотлари ўша даврга хос бўлган табиий ва техноген фавқулодда вазиятларни ҳисобга олиб қурилган эди. Россиянинг Саяно-Шушен гидротехника иншооти билан содир бўлган аварияни мамлакатнинг 10...20 йиллар олдинги инқирозли иқтисодиёти сабаб ўз вақтида гидротехника иншоотини барқарорлигини ошириш учун профилактика ишларини амалга оширилмаганлигидир [3,4,6].

Гидротехника иншоотлари авариялари табиий сабаблар ёки инсон таъсири натижасида содир бўлади. Зилзилалар, довуллар, қўчкилар, тошқинлар ва ҳоказо табиий сабабларга мисол бўлади. Инсон фаолияти билан боғлиқ сабаблар: лойиҳалашдаги хатолар, гидротехника иншоотларнинг структуравий нуқсонлари, операцион қоидаларини бузиш, тўғондаги ортиқча сувни чиқариб юбормаслик ва тошиб

кетиши, диверсия ҳаракатлари, гидротехника иншоотларига қарши ядровий ёки анъанавий қурооллар билан зарбалар бериш. Гидротехник иншоотларда содир бўладиган аварияларга тўғон асосининг бузилиши, ортикча сув чиқазиб юбормаслик, конструктив камчиликлар, тўғон ёнбағирини қуллаши, ер кимираши ва ва бошқа сабаблар бўлиши мумкин (1-жадвал).

1-жадвал

Гидротехник иншоотларда содир бўладиган авариялар сабаблари

№	Авария сабаблари	%
1	Асосининг бузилиши	40
2	Ортикча сув чиқазиб юбормаслик	23
3	Конструктив камчиликлар	12
4	Асоснинг нотекис чўкиши	10
5	Тўғонга юқори чегаравий капилляр босим таъсири	5
6	Ҳарбий ҳаракатлар	3
7	Тўғон ёнбағирини қуллаши	2
8	Материаллардаги нуқсонлар	2
9	Ер кимираши	1
10	Нотўғри фойдаланиш	2
	Жами	100

Гидротехника иншоотлардаги авариялар содир бўлиш тўғон турларига ҳам катта боғлиқдир. Гурунгли тўғонларга эга бўлган сув омборларида тез-тез авариялар содир бўлади (2-жадвал).

2-жадвал

Ҳар хил турдаги тўғонлар учун авариялар частотаси

№	Тўғон тури	Авариялар частотаси, %
1	Грунгли тўғон	53
2	Маҳаллий материаллардан химоя дамбалари	4
3	Бетон-гравитацион тўғон	23
4	Темир бетонли тўғон	3
5	Бошқа турдаги тўғонлар	17
	Жами	100

Гидротехника иншооти аварияси натижасида катта ҳудудда сув тошқинлари юзага келади. Тошқин зонасидаги фавқулодда вазиятлар аксарият ҳолатларда қуйидаги иккиламчи зарар етказувчи омиллар билан бирга келади:

-электр кабеллари ва симларининг узилиши ва қисқа туташуви туфайли ёнғинлар;

-тупрок эрозияси натижасида кўчкилар ва қулаш;

-ичимлик сувининг ифлосланиши ва сув тошқини зонасида ҳамда яқинида санитария-эпидемиология ҳолатининг кескин ёмонлашиши натижасида юқумли касалликлар тарқалиши, айниқса ёз ойларида.

Бундай сув тошқинлари натижасида одамлар қурбон бўлади. Аҳолининг умумий йўқотишлари кечаси 90% ва кундузи 60% га етиши мумкин. Шундай ҳудудларда жойлашган аҳоли пунктларида яшовчилар билан режа асосида ҳар йил тушунтириш ишлари ва ўқув машқларини олиб бориш одамлар орасида бўладиган қурбонлар сонини камайишида катта роль ўйнайди[7].

Тўғондан пастда жойлашган шаҳарлар ва бошқа аҳоли пунктлари сув тошқини хавфи остида. Шунинг учун бу ерда яшовчи одамлар қуйидаги хавфсиз хатти-ҳаракатлар қоидаларини билишлари керак:

-олдиндан ҳудуддаги эвакуация учун хавфсиз бўлган баланд жойларни ҳисобга олиб қўйиши керак;

-тўсатдан сув тошқини бўлса, одам катта тўлқин таъсиридан ўзини қутқариш учун зудлик билан энг яқин баланд жойга ёки мустаҳкам бинонинг томига ёки юқори қаватига чиқиб олиши керак;

-агар уйингизни сув босган бўлса, унинг электр таъминотини ўчириш, кундузи деразадан ёрқин матодан қилинган байроқни, кечаси эса фонарни ёқиб қўйиб, уйда одам борлигини билдириши керак;

-озик-овқат ва ичимлик сувини ҳисобга олиши ва назорат қилиш керак. Чунки ёрдам 1-2 кундан кейин келиши мумкин. Тошқин сувда бўлган овқатларни истеъмол қилмаслик-сабаби у заҳарланган бўлиши мумкин ва ичиш учун текширилмаган сувдан фойдаланмаслик керак.

Агар одам сув тошқинида қолиб кетса, қуйидаги ҳаракатларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ бўлади:

-ўткир қирралар билан хавфли нарсаларни ўзидан узоқроққа суриши керак;

-сузувчи нарсаларни ушлаб туриши керак;

-сузувчи нарсаларни боғлаб, устига чиқиб олиб ҳаракат қилиши керак.

Гидродинамик авариядан кейинги ҳаракатлар-бинога киришдан олдин, ундан фойдаланишда хавф йўқлигига ишонч ҳосил қилиш керак. Хонага киришда гугурт ёки бошқа очик оловдан фойдаланмаслик, батареядан ишлайдиган фонарлардан фойдаланиш лозим. Йиғилган газларни чиқиб кетиши ва хонани қуриштиш учун барча эшик ва деразаларни очиш керак. Электр тармоғи текширилмагунча қувват манбаларидан фойдаланмаслик лозим. Гидротехника иншоотларида авариялар сонини камайитириш учун тегишли ташкилотлар катта қўламдаги ишларни амалга оширишлари зарур[8,9,10].

Гидротехника иншоотлар аварияларини олдини олиш хавфсизлик ва иқтисодий барқарорликни таъминлашда муҳим роль ўйнайди. Бунга эришиш йўлидаги баъзи бир тавсиялар:

1. Иншоотларни мунтазам техник кўрикдан ўтказиш, шу

жумладан конструкциянинг мустаҳкамлиги ва ишончилигини текшириш.

2. Иншоотларда аварияга сабаб бўладиган ҳолларни аниқлаш учун ва зудлик билан ҳаракатланиш имкон берадиган замонавий назорат ва мониторинг тизимларини жорий этиш.

3. Ходимларни тайёрлаш. Операторлар яхши тайёргарликка ва технологик жараёнлар ҳақида тўлиқ маълумотга эга бўлишлари керак.

4. Хавфсиз фойдаланиш режимларини ишлаб чиқиш ва уларга риоя қилиш, шу жумладан сув ресурсларини бошқариш бўйича тавсияларга риоя қилиш.

5. Конструкцияни мустаҳкамлаш ва ишончли материаллардан фойдаланиш.

6. Ишчи ходимлар билан режали ўқув машқларини

ўтказиб, фавқулодда вазиятлар юз берганда ходимларнинг ҳаракатланиши билан боғлиқ қўникмаларини синаб кўриш.

7. Олдин содир бўлган авариялар сабабларини аниқлаш бўйича таҳлиллар қилиш ва бундай ҳолатлар юз бермаслиги учун чора-тадбирлар ишлаб чиқиш.

Хулоса. Гидротехника иншоотларининг авариялари жамият учун жиддий таҳдиддир. Улар тошқинларга олиб келиши, катта иқтисодий йўқотишларга сабаб бўлиши ва экотизимларга зарар етказиши билан бирга одамлар ўлимига сабаб бўлади. Бироқ, ҳалокатли авариялар олдини олиш бўйича тегишли қоидаларга риоя қилиш, авариялар сабаби бўйича маълумотларни мунтазам таҳлил қилиш хавфларни минималлаштиришга ва гидротехника иншоотларнинг хавфсизлигини таъминлашга ёрдам беради.

АДАБИЁТЛАР:

1. Хайдаров Т. А., Хожиев А. А. Гидромелиоратив тизим иншоотлари хавфсизлигини таъминлаш асослари. Монография, Т.: 2019. ТИҚХММИ босмаҳонаси. 107 бет.
2. Муртазаева Г. Р., Хожиев А. А., Хайдаров Т. А. Гидротехника иншоотлари хавфсизлигини ошириш масалалари. //Журнал “Агроилм”, 2019 й., №3, 77-бет.
3. Кроличенко В.В. Социальные последствия аварий плотин и катастрофических паводков. Известия вузов. Геодезия и аэрофотосъемка №1, 2006 г., стр. 61.
4. Кроличенко В.В. Кроличенко О.В. Методы и средства контроля устойчивости гидротехнических сооружений. Известия вузов. Геодезия и аэрофотосъемка, №3, 2006 г., стр. 37.
5. Свод правил: СП 58.13330.2012 Гидротехнические сооружения. положения. Актуализированная редакция СНиП 33-01-2003.— М.: Федеральный центр нормирования, стандартизации и технической оценки соответствия в строительстве, 2012 г., 2 с.
6. Нарбаев М. Обзор деятельности по обеспечению безопасности гидротехнических сооружений в Казахстане. //Международный семинар по безопасности гидротехнических сооружений.-СПб., 2017 г., URL: <http://kazaral.org/obzor-deyatelnosti-poobespecheniyu-bezopasnosti-gidrotexnicheskix-sooruzhenij-vkazaxstane/> (дата обращения: 19.08.2019 г).
7. Zhang M., Xu Y., Jia J.S. Analysis of earth dam failures – adatabase approach // ISGSR 2007 First International Symposium on Geotechnical Safety & Risk. – Shanghai, 2007 г., – V. 3 (3). –P. 184–189.
8. Черных О.Н., Доронкина О.А., Алтуни В.И. Анализ и оценка технического состояния грунтовых плотин по результатам натурных исследований. // Роль природообустройства в обеспечении устойчивого функционирования и развития экосистем: Материалы международной научно-практической конференции. – М.: 2006 г., Т. 2, с. 527–533.
9. Кусаинов А.Б. Обследование гидротехнических сооружений с целью оценки безопасности. – Кокшетау: Кокшетауский технический университет, Министерства по чрезвычайным ситуациям Республики Казахстан, 2013 г. 41 с.
10. Пригара А.М., Царев Р.И., Коноплев А.В., Пенский О.Г., Осовецкий Б.М. Инженерно-геологическая оценка гидротехнических сооружений методами неразрушающего контроля. //Фундаментальные исследования. 2014 г., № 11-2.с. 348–352.

FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI OLISH VA BUNDAY VAZIYATLARDA HARAKAT QILISH DAVLAT TIZIMINING TASHKIL ETILISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Xusanova Sumbul Islamovna,
pedagogika fanlari doktori, professor,
Fuqaro muhofazasi instituti.

Anotatsiya. Maqolada mamlakatimiz aholisi va iqtisodiyot obyektlarini tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar muhofaza qilish maqsadida tashkil etilgan Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimining tashkil etilishi, rivojlanish bosqichlari va islohatlari hamda faoliyat tarmoqlarining kengayish tartibi tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: favqulodda vaziyat, davlat tizimi, aholi xavfsizligi, funksional va hududiy quyi tizimlar, davlat boshqaruvi, nazorat.

ЭТАПЫ ОРГАНИЗАЦИИ И РАЗВИТИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СИСТЕМЫ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ И ДЕЙСТВИЙ В ТАКИХ СИТУАЦИЯХ

Хусанова Сумбул Исламовна,
доктор педагогических наук, профессор,
институт Гражданский защиты.

Аннотация. В статье анализируются организация, этапы и реформы развития Государственной системы предупреждения чрезвычайных ситуаций и действий в таких ситуациях, организованной в целях защиты населения и объектов экономики нашей страны от чрезвычайных ситуаций природного и техногенного характера, а также порядок расширения отраслей деятельности.

Ключевые слова: чрезвычайная ситуация, государственная система, безопасность населения, функциональные и территориальные подсистемы, государственное управление, контроль

STAGES OF ORGANIZATION AND DEVELOPMENT OF THE STATE EMERGENCY PREVENTION SYSTEM AND ACTIONS IN SUCH SITUATIONS

Khusanova Sumbul Islamovna,
Doctor of Pedagogical Sciences, professor,
Institute of Civil Protection.

Annotation. The article analyzes the organization, stages and reforms of the development of the State Emergency Prevention System and actions in such situations, organized in order to protect the population and economic facilities of our country from natural and man-made emergencies, as well as the procedure for expanding industries.

Key words: emergency situation, state system, public safety, functional and territorial subsystems, public administration, control.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligi va suverenitetini qo'lga kiritgan ilk kunlardan boshlab, mamlakatimiz aholisi va hududlarini tabiiy ofatlar, texnogen falokatlardan muhofaza qilish bo'yicha ishonchli va samarali milliy tizimni yaratish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Aholini xavfsizligi va muhofazasi davlat siyosatining asosiy tamoyili etib belgilandi.

Bu borada aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida qo'yilgan ilk qadamlardan biri - dastlab Mudofaa vazirligi qoshida fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasining, so'ngra esa shu boshqarma negizida 1996 yil 4 mart kuni O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etilishi bo'ldi [2, 12].

Mamlakatimiz aholisi va iqtisodiyot obyektlarini tabiiy ofatlardan muhofaza qilishning samarali tizimini tashkil etish, respublikada tabiiy va texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish maqsadida tashkil etilgan Favqulodda vaziyatlar vazirligi zimmasiga - Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi (FVDT)ni tashkil etish va uning faoliyatini ta'minlash vazifasi yuklandi. Favqulodda vaziyatlar vazirligi - Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish ishlarini amalga oshiruvchi vakolatli davlat boshqaruvi organi ekanligi, yagona davlat siyosatini ishlab chiqishi va amalga oshirishi, FVDTni rivojlantirishi va boshqaruvini ta'minlashi hamda hamkorlikdagi harakatlarni muvofiqlashtirish funksiyalari qonun hujjatlari bilan mustahkamlandi [1].

Muammoning qo'yilishi. Respublikamiz FVDTni yanada takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirishda tizimning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilgan holda uning istiqboldagi taraqqiyotini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, maqsadli yaxlit milliy davlat tizimining bugungi kungacha bo'lgan rivojlanish bosqichlari, takomillashuvi va islohatlari hamda faoliyat tarmoqlarining kengayishini yoritish maqsadga muvofiqdir. FVDTning tashkil etilishi, tarkibiy tuzilishi va faoliyatini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy izlanishlar olib borishni tizimning dastlabki - tashkil etilishi 1996-2000 yillar, o'rta - rivojlantirish 2000-2011 yillar va yangi - yanada takomillashtirish 2017-2021 yillar davrlariga bo'lgan holda amalga oshirish samarali bo'ladi. 1997 yil yakunida yurtimiz va ilg'or xorijiy mamlakatlarda to'plangan ko'p yillik tajribaga tayangan holda, fuqaro muhofazasi bo'yicha o'z umrini o'tab bo'lgan eskicha yondashuv va qoliplardan tubdan farq qiladigan, har tomonlama puxta o'ylangan, zamonaviy majmua dastur asosida mutlaqo yangi, favqulodda vaziyatlarni oldini olish va harakat qilish davlat tizimi tashkil etildi hamda uning tuzilmasi, asosiy vazifalari va faoliyati belgilandi. FVDT o'z tarkibiga - boshqaruv organlari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, favqulodda vaziyatlarda aholini va hududlarni himoya qilish masalalarini hal etish vakolatiga kiradigan boshqa tashkilotlarning kuch va vositalarini birlashtirdi. Tizimning asosiy faoliyati favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasidagi tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish, ular yuzaga kelganda aholi xavfsizligini, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni hamda tinchlik va harbiy davrda davlat iqtisodiyotiga zararlarni kamaytirishga yo'naltirildi [8]. FVDT yangi tashkil etilgan vaqtida hukumatning tegishli qarori bilan tasdiqlangan va amalga kiritilgan Nizom va tizim tashkiliy tuzilmasiga muvofiq, FVDTning asosiy vazifalari, uni tashkil etish, tarkibi va faoliyat ko'rsatish tartiblari hamda FVDT tarkibiga kiritilgan vazirlik va idoralarning aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha funksiyalari belgilandi. Shuningdek, vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan FVDTning funksional va hududiy quyi tizimlari to'g'risidagi

Nizomlar ishlab chiqilib, Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlanib, joriy etildi.

Tadqiqot natijalari. FVDT yangi tashkil etilgan (1997 y) va faoliyati yo'lga (1998-1999 yy) qo'yilganda, uning tarkibiga 9 ta vazirlik, 3 ta qo'mita, 2 ta agentlik, 6 ta kompaniya, 5 ta korporatsiya, 1 ta konsern, 2 ta davlat inspeksiya, 4 ta davlat va aksiyadorlik uyushmasi, 2 ta hukumat bosh boshqarmasi, Qizil Yarim oy jamiyati va Fanlar akademiyasi jami 36 ta vazirlik va idoralar jamlangan holda, ularning har biri o'z vakolat va majburiyatlaridan kelib chiqib, tegishli soha va yo'nalishlarida 2011 yil avgust oyiga qadar faoliyat yuritdi. 2011 yilga kelib, respublikada favqulodda vaziyatlarni oldini olish va fuqaro muhofazasini ta'minlash borasida bir qator qonunlar va qonun osti hujjatlar qabul qilinganligi hamda 1998-2010 yillar davomida ularga tegishli o'zgartirish, qo'shimcha va tahrirlar kiritib borilganligi - FVDTning meyoriy-huquqiy hujjatini yangilash va tizimni o'zini ham tubdan takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltirdi. 1997-2010 yillar davomidagi amaliy tajribalardan kelib chiqib, respublikamiz davlat va jamiyat tuzilishiga mos ravishda FVDTning faoliyati samaradorligini yanada oshirish hamda uning faoliyati ustidan davlat boshqaruvi va nazoratini tartibga solish lozim deb topildi. Shu bilan birga, FVDT tarkibini yanada kengaytirish, ya'ni uning tarkibiga vakolatli vazirlik va idoralarni kiritish hamda ularga aniq funksional vazifalarini belgilagan holda tizim tarkibida faoliyat yuritishlarini yo'lga qo'yishning ehtiyoji namoyon bo'ldi.

Shu sababli, 2011 yil 24 avgustda Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi FVDT faoliyati samaradorligini yanada oshirish maqsadidagi qarori qabul qilinib, FVDTning to'ldirilgan Nizomi, tizimi faoliyati ustidan davlat boshqaruvi va nazorati sxemasi hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlarning aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha funksiyalari tasdiqlandi. Shunga ko'ra, respublikamiz davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek boshqa tashkilotlar o'zlarining FVDT funksional va hududiy quyi tizimlari to'g'risidagi Nizomlarni qayta ishlab chiqib, Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlab, amalga kiritdilar.

2017 yilga kelib, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy islohotlar konsepsiyasiga asosan, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlashning yangi tizimini joriy etish, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning sifat jihatidan samarali mexanizmini yaratish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbuslari va bevosita rahbarliklarida davlatimizni barcha jabhalarida bo'lgani kabi FVDTning rivojlantirish, yanada takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar tashkil etildi va amalga oshirildi [2, 3, 4]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 iyundagi "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5066-son Farmoni bilan tasdiqlangan FVDTni yanada rivojlantirish bo'yicha kompleks

chora-tadbirlar Dasturiga asosan bosqichma-bosqich tadbirlar amalga oshirildi. Yangi O'zbekiston islohatlari davrida xususan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi vazifalariga muvofiq, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish chora tadbirlari samaradorligini yanada oshirish bo'yicha FVDTni takomillashtirishning eng muhim yo'nalishlari belgilab olindi [5, 6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 apreldagi "Favqulodda vaziyatlar tuzilmalarining faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4276-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2019-2021 yillarda Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ga muvofiq, FVDT faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tegishli me'yoriy-huquqiy hujjat ishlab chiqilishi belgilandi [7]. 2011-2020 yillar davomida qator vazirlik va idoralarning qayta tashkil etilganligi, ularga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarining o'zgarganligi hamda bir qator vazirliklarning yangidan tashkil etilganligi sababli FVDT tomonidan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tadbirlarini amalga oshirishni samarali tashkil etish va faoliyatini muvofiqlashtirishda qator muammolarni keltirib chiqardi. Xususan, 2020 yilning 28 aprel kuni Buxoro viloyatidagi yog'ingarchilik va kuchli shamol esishi oqibatida Olot, Qorako'l va Jondor tumanlarida kuzatilgan tabiiy ofat hamda 1 may kuni Sirdaryo viloyati Sardoba tumanidagi "Sardoba" suv omborida yuzaga kelgan texnogen favqulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf etishda FVDT faoliyatidagi ba'zi nomutanosib va nomuvofiqliklar kuzatildi [9]. Shu sababli, aholini va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, ularning oldini olish va sodir bo'lganda oqibatlarini bartaraf etishning samarali mexanizmini ishlab chiqish va uni tartibga solishning yangi normativ-huquqiy asosini yaratishni taqozo etdi. FVDTdagi mavjud muammo va kamchiliklardan kelib chiqib, bu boradagi tadbirlarni yagona tizim asosida olib borilishining huquqiy asosini yaratish va tatbiq etish bo'yicha amaldagi FVDT faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy va tashkiliy bo'shliqlarni to'ldirish hamda favqulodda vaziyatlarda FVDT xizmatlarini muvofiqlashtirish tartibini yaratish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 26 avgustdagi 515-son qarori qabul qilinib, FVDT faoliyatiga qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Xususan, davlat va xo'jalik boshqaruvi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining yo'nalish doirasidagi vazifalari va funksiyalari yangidan ishlab chiqildi va yuzaga kelayotgan favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish va jabrlanganlarga yordam ko'rsatish tadbirlarida duch kelinayotgan muammoli masalalar tahliliga ko'ra, bir qator vazirlik va idoralar FVDT tarkibiga kiritildi hamda ularga muayyan funksiya va vazifalar yuklatildi. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishda volontyorlik faoliyati alohida o'rin tutishini hisobga olib, yangi normativ-huquqiy hujjatda O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 dekabrda "Volontyorlik faoliyati to'g'risida"gi

Qonuni asosida mahalliy davlat hokimiyati organlarining vazifalariga favqulodda vaziyatlarda valontyorlik faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishga oid bandlar kiritildi. Shu bilan birga, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish sohasidagi xorij tajribasi, xususan AQSH, Yaponiya, Rossiya va Belarus davlatlari tajribasi o'rganilib, Rossiya Federatsiyasi va Belarus Respublikasi tajribasi asosida, favqulodda vaziyatlarda harakat qilishning va FVDTni muvofiqlashtirishning yangi tizimi ishlab chiqildi. FVDT faoliyatiga oid yangi qaror qabul qilinishi tizim tarkibiga kiruvchi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha yangi funksiya va vazifalarini belgilash barobarida, pirovard natijada ushbu tizimning kundalik, yuqori tayyorgarlik va favqulodda vaziyatlar rejimidagi faoliyatini muvofiqlashtirish, tizim faoliyatini sifatli yo'lga qo'yish va tartibga solishning samarali mexanizmi yaratildi.

FVDT faoliyatining o'tgan davr (1997-2023 yillar) mobaynida bajarilgan samarali tadbirlar sarxisob qilinganda, mamlakatimiz aholisi va hududlarining muhofazasi, iqtisodiyot obyektlarining barqaror ishlashi, fuqarolarning hayoti, tinch mehnati va osoyishtaligi himoyasi uchun ishonchli asos solindi [10,11]. O'tgan yillar davomida FVDT o'z tarkibiga 40 dan ortiq turli vazirlik va idoralarni, respublikamizning barcha hududiy bo'g'inlarini qamrab olib, davlat boshqaruvi hamda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, tabiiy ofat va halokatlarning oldini olish, ularning oqibatlariga qarshi kurashish bo'yicha kuch va vositalarning o'zaro uyg'unligi va yaqin hamkorligi ta'minlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida va Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga oid ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar qatorida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlarining ham belgilanganligi FVDTning yanada takomillashtiradi [6]. FVDT yaxlit milliy tizim sifatida respublikamiz aholisi va hududlarini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish maqsad va vazifalari yo'lida keng qamrovli va samarali faoliyat yuritir ekan amaliyotda yuzaga kelayotgan muammoli masalalar va huquqiy bo'shliqlarni hal etish, tizimni inson-jamiyat-davlat tamoyili asosida tartibga solish va rivojlantirish yuzasidan davlat siyosati darajasida me'yoriy-huquqiy, tashkiliy-amaliy hamda ta'minot chora-tadbirlari ko'rib boriladi. Bunda yetakchilik va tashabbuskorlik maxsus vakolatli boshqaruv organi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan tashkiliy-metodik jihatdan amalga oshiriladi. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan hamda davlat boshqaruv organlarida amalga oshirilgan ma'muriy islohatlar sababli, Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimini yanada

takomillashtirish to'g'risida"gi hukumat qarori ishlab chiqildi. Mazkur hujjat bilan FVDT faoliyati to'g'risidagi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, 2023 yil 29 aprel kuni qayta yangidan tasdiqlandi [8].

Xulosa. FVDT tarkibi va faoliyat ko'rsatish tartibini belgilash hamda tizim faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari yanada takomillashtirish maqsadida, undagi vazifa va funksiyalar "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiqlashtirildi;

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish ishlarida boshqaruv, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlariga rahbarlik qilish, favqulodda vaziyatlarni e'lon qilish tartiblari

takomillashtirildi;

FVDT tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarning funksiyalari Qonun talablari asosida qayta ko'rib chiqilib, ularga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi;

Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari bo'yicha 2023 yil 1 yanvardan boshlab qayta va yangi tashkil etilayotgan davlat boshqaruvi organlari FVDT tizimga yangidan kiritilib, ularga favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida muayyan funksiyalar yuklatildi;

FVDT tomonidan favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar va bu boradagi huquqiy bo'shliqlarni inobatga olgan holda tegishli tartib-tamoyillar nazarda tutildi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-avgustdagi "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 4 mart kunidagi "O'zbekiston Respublikasida Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi PF-1378-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 iyundagi "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5066-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5185-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5706-son Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 171-sonli Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2021 yil 16 avgustdagi "FVV birinchi o'rinbosarining "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida"gi Axboroti haqida"gi 1293-son Qarori.
10. Husanova S.I., Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimini shakillanish tarixi // FVV Muhofaza+ jurnali, 2022. №4, B. 6-9.

ОРГАНИК ЧИҚИНДИЛАРДАН ТАБИАТГА ЧИҚАРИЛАДИГАН ЗАҲАРЛИ ГАЗЛАР ВА МОДДАЛАР

Усмонов Камолиддин Эшқулович,

техника фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент,

“Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти”

Миллий тадқиқот университети.

Аннотация. Мақолада органик чиқиндилари таркибидаги заҳарли газлар миқдори ва улардан атроф-муҳитга чиқаётган зарарли газлар ва уларни қайта ишлаш имкониятлари тўғрисида маълумотлар берилган. Шу билан биргаликда органик чиқиндиларни қайта ишлаш ва улардан самарали фойдаланиш масалаларига катта эътибор қаратилган.

Калит сўзлар: органик чиқиндилар, экология, қайта ишлаш, табиий ресурслар, атроф-муҳит, табиат, биогаз, заҳарли газлар, хавфли моддалар.

ТОКСИЧНЫЕ ГАЗЫ И ВЕЩЕСТВА, ВЫДЕЛЯЕМЫЕ ИЗ ОРГАНИЧЕСКИХ ОТХОДОВ

Усмонов Камолиддин Эшқулович

доктор философий по технический наук (PhD), доцент,

Национальный исследовательский университет

“Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства”

Аннотация. В статье приведены сведения о количестве токсичных газов, содержащихся в органических отходах, и вредных газах, выделяющихся из них в окружающую среду, и возможностях их переработки. При этом большое внимание уделяется вопросам переработки органических отходов и их эффективного использования.

Ключевые слова: органические отходы, экология, переработка, природные ресурсы, окружающая среда, природа, биогаз, токсичные газы, опасные вещества.

TOXIC GASES AND SUBSTANCES RELEASED FROM ORGANIC WASTE

Usmonov Kamoliddin Eshkulovich

Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences,

National Research University “Tashkent institute of irrigation and agricultural mechanization engineers”.

Annotation. The article provides information on the amount of toxic gases contained in organic waste and harmful gases released from them into the environment, and the possibilities of their processing. At the same time, much attention is paid to the issues of processing organic waste and its effective use.

Key words: organic waste, ecology, recycling, natural resources, environment, nature, biogas, toxic gases, hazardous substances.

Кириш. Ўзбекистон мустақиллигининг охирги йилларига келиб ифлослантирувчи моддаларнинг атмосферага ташланиши 2,5 баробарга пасайиши, ифлосланган оқова сувларининг ташланиши 2,5 баробар камайиши ҳамда пестицидлардан фойдаланиш кейинги 5 йил давомида 4 ва ундан ортиқ баробарга қисқариши республиканинг экологик сиёсати натижалари ҳисобланади [1].

Мустақиллик йилларида республикада атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш масалаларини бошқариб турадиган қарийб 30 та қонун ва 350 дан ортиқ меъёрий- ҳуқуқий ҳужжат қабул қилинган. Жумладан, «Атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш тўғрисида»ги қонун қабул қилинганидан сўнг атмосфера ҳавосига салбий таъсирни камайтириш бўйича

амалга оширилган чоралар туфайли 2023 йил якунларига кўра, атмосферага чиқарилаётган ифлослантирувчи моддаларнинг умумий ҳажми 2 млн. тоннагача қисқарди. Сўнгги йигирма йилда турғун манбалардан зарарли моддаларнинг чиқарилиши 1,3 дан 0,6 млн. тоннагача камайгани тўғрисида маълумотлар мавжуд [2].

Маълумки, органик чиқиндисининг таркибидаги органик азот 1,5% гача, калий 0,7% гача ва фосфор 0,8% гача ва бошқа турдаги элементларнинг мавжудлиги унинг нақадар қимматбаҳо органик ўғит эканлигини исботлайди [1,2]. Органик чиқиндиларни очик ҳавода сақлаш жойларида жуда катта миқдордаги фойдали элементлар атмосферага чиқиб кетиб “эскиради” ва анаэроб жараён учун ҳам катта аҳамиятга эга бўлмай қолади. Бу даврда унинг таркибидаги учувчи ёғли кислоталар миқдори ортиб кетади ва бир-бирига мутаносиб бўлмаган микроорганизмларнинг хаотик ривожланиши натижасида чиқиндихона атрофида жуда катта миқдордаги патоген микрофлора пайдо бўлиб, ёқимсиз хид тарқатади. Шунинг учун замонавий чорва ва парранда фермасини ишга туширишдан олдин улардан чиқаётган органик чиқиндиларни қайта ишлаш тавсия қилинади.

Муаммонинг қўйилиши. Органик чиқиндилар манбаларидан ҳосил қиладиган кундалик захира жуда кўп миқдорни ташкил қилиши ва улар таркибдаги микрофлоранинг тез ўзгариши табиатга бевосита салбий таъсир кўрсатади. Хусусан, баъзи органик чиқиндилар таркибидан тўғридан-тўғри экологик жиҳатдан хавфли моддалар: аммиак, водород сульфид, меркаптан, фенол, оғир металл тузларининг кўплиги атроф-муҳит, табиат учун катта хавф туғдиради. Бундан ташқари органик чиқиндилар таркибида куйдирги, бруцеллёз, энцефалит, лептоспироз, оксил, сальмонеллёз, сарамас, парранда ва чўчка гриппи ҳамда ўлати, кокцидиозлар ва кўплаб бошқа касаллик тарқатувчилар учрайди. Юқорида келтирилганидек, чорвачилик чиқиндиларидаги намлиқнинг нормал миқдори гижжа тухумлари, моғор замбуруғи кўпайиши учун жуда қулай муҳит ҳисобланади.

Маълумки, қишлоқ хўжалиги чиқиндиларида намлиқнинг доимий етарли даражадалиги юқорида келтирилган касаллик тарқатувчи омиллар жадаллигини орттиради. Молхона, чўчкахона ва паррандахоналарда боқилаётган жониворлардан чиқаётган ва шаҳар маиший органик чиқиндилари таркиби уларнинг кундалик истеъмол рационига, чиқиндиларни йиғиб олиш усулига боғлиқ бўлади. Масалан, чўчкахонанинг чиқиндилар каналчасидан олинган 1 л чиқинди таркибида 5...42 дона гельминтлар тухуми ва аскарида, култопўшак, эзофагост ва каламуш тошмаси топилган [2]. Молхона, чўчкахона ва паррандачилик фермалари атрофидаги ҳаво таркибида эса доимий учрайдиган 40 ... 50 мг/м³ миқдорда, 1 км узоқликда эса 18 мг/м³ зарарли патоген микрофлора борлиги аниқланган [3]. Атмосфера ҳавосида эса руҳсат этилган кўрсаткичлардан 5-6 баравар ортқича аммиак концентрацияси, умумий ва микробли органик чиқиндилар 10 баравар миқдоргача учрайди [4].

Методология. Самарқанд вилояти Пайарик тумани Уймовут МФЙ да жойлашган “Нахалбаева Мубора” парранда фермасида ва “ТИҚХММИ” МТУ ресурсте-жамкор технологиялар лабораториясида ўтказилган тажриба таҳлилларида, чорвачилик ва паррандачилик фермаларидан чиқаётган органик чиқиндиларнинг биологик хусусияти шундан далолат берадики, улар хайвон ва паррандаларнинг модда алмашуви маҳсулоти ҳисобланади (1-расм)



1-расм. Лаборатория қурилмасида парранда органик чиқиндисини анаэроб қайта ишлаш жараёни

Уларнинг таркибидаги ер унумдорлигини ошириш учун зарур бўлган моддалар ҳақида юқорида батафсил тўхталиб ўтилди, лекин улар билан бирга зарарли моддалар: аммиак, водород сульфид, меркаптан, фенол, оғир металл тузларининг кўплиги атроф-муҳит, табиат учун катта хавф туғдиради. Улар эса атроф-муҳитга, табиатга салбий таъсир кўрсатиши муқаррар. pH метрда ўтказилган натижа таҳлилларида табиатга чиқадиغان зарарли газлар ва миқдори аниқланди. Масалан, парранда чиқиндиси таркибида азот 1,8% гача, фосфор 1,5% , калий 0,9% гачани ташкил этади, чиқиндининг ўзи эса 20...54 % гача органикадан иборат. Агар парранда чиқиндиси қурилса, бу таркиб 5 бараваргача ортади. Демак кислотали муҳит ва бадбўй газларни камайтириш устида ишлаш, техник ва технологик талабларни таҳлил қилиш ва Ўзбекистон иқлим шароитида органик чиқиндиларини қайта ишлаш зарурияти пайдо бўлди.

Тадиққот натижалари. Органик чиқиндиларни агро-кимёвий тадиққ қилиш натижалари шунини кўрсатдики, таркибидаги намлиқ ва озукта моддалари миқдори бўйича қорамол тагига тўшалган тўшамда ҳамда чўчка ва парранда органик чиқиндиларида тўпланган кислота сони кўрсаткичлари кимёвий таркиби анча ўзгариб туради. Қорамол тўшамаси ва чўчка органик чиқиндиси таркиби: 62,0...69,0% сувдан, 0,32...0,69% умумий азот, 0,07...0,13% аммиакли азот, 34...49 мг/г гача нитратли азот ва pH миқдори 7,7...8,1 оралиғида бўлади. Паррандалар тўшамасида тўпланган асосий озукта элементлар

микдори йирик корамол, чўчка органик чиқиндисидан анча юқори. Парранда органик чиқинди таркиби умумий азот 1,31...1,52%, аммиакли азот 0,40...0,62%, нитратли азот 99...109 мг/кг, намлик 67...72% ва рН микдори 6,8...6,9 оралиғида бўлади [1].

Органик чиқиндиларда оғир металллар концентрациясининг ердаги микдори билан чекланади ва захарли элементларнинг тахминан йўлга қўйиладиган даражаси асосида баҳоланади. Улар эса қуйидаги микдорда бўлади (мг/кг дан ошмайди): қўрғошин учун 6,0 мг/кг, кадмий учун 0,5 мг/кг, симоб учун 2,1 мг/кг, нитратлар учун 130,0 мг/кг. Бу микдор шундан ортмаслиги талаб этилади. Лекин кўпчилик ҳолларда ерларга солинадиган органик чиқиндилар қанча кўп бўлса, шунча ер «бой» деган нотўғри хулосага келинади. Бундан ташқари молхона ва паррандахоналардан чиқарилаётган органик чиқиндилар (суюқ гўн, паррандахона чиқиндиси) фойдаланиш (сақлаш) технологияси бузилиши оқибатида фақатгина ер юзидаги сувлар-нигина эмас, балки ер ости сувларини ҳам азот бирикмалари билан ифлослантириши мумкин. Бундай ифлосланиш (ифлосланиш даражасига қараб) натижасида сувларнинг сақланиш жойларида эвтрофикацияланиш юзага келиб, сувдаги бошқа турдаги тирик жониворлар ўлишига олиб келади. Молхона органик чиқиндиларидан тизимсиз фойдаланиш табиатга жуда катта зиён етказиши мумкин [2].

Юқоридаги таркибни назоратлашнинг қулай ва арзон усулларида бири бундай органик чиқиндиларга анаэроб қайта ишлов бериш ҳисобланади.

Атмосферага қайта ишлов берилмасдан чиқариб ташланаётган органик чиқиндилардан ажралиб чиқаётган захарли иссиқхона газларини камайитириш мақсадида тузилган ташкилотнинг сўнги вақтларда жадал ишлаши кўзга ташланмоқда

Органик таркибли манбаларнинг интенсив истеъмоли иссиқхона газларини кўпайишига олиб келиши ҳамда чиқиндиларни очикдан очик ёки натижасида ажраландиган иссиқхона газлари муаммоси жаҳон олимларини қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланишнинг янги-янги йўллари излашга ундамоқда. XX асрнинг охирига келиб, дунё иқлимнинг антропоген ўзгариши глобал муаммоларни келтириб чиқармоқда. Жойларда бўлаётган иссиқ иқлим тўлқинлари оқими, кучли шамоллар

ва сув тошқинлари, атмосферамизда иссиқхона газларининг кўпайиши натижасидир. Бунинг эса фақат биргина давлат чегарасида эмас, балки бутун дунёда кечаётган ананал ўзгаришлардан билса бўлади [3].

Инсониятнинг кундалик истеъмолидаги озиқ-овқатнинг асосий қисмини қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ташкил қилади. Бу маҳсулотлар таркибидаги инсон организми учун асосий салбий таъсир этувчиларга оғир металллар, нитратлар ва шунга ўхшаш бошқа турдаги моддалар киради.

Инсонлар учун экологик хавфсиз маҳсулот етиштириш қишлоқ хўжалигининг асосий вазифалардан бири ҳисобланади. Етиштирилаётган маҳсулот нафақат инсонлар организмига салбий таъсир кўрсатмаслиги, унинг таъсири ҳайвон ва паррандаларга ҳамда табиатга бўлмаслиги талаб этилади. Экологик тоза маҳсулот олиш учун эса жойнинг экологотоксикологик таснифини билиш керак. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш даврида экинлар ҳосилдорлигини, ҳайвонлардан олинандиган маҳсулотлар микдорини асосланмаган ҳолда ошириш мақсадида минерал (азотли ўғитлар) ўғитлар, пестицид, мелиорантлар ва гармонлар талабдан ташқари пала-партиш берилаётгани кузатилмоқда. Бунинг олдини олиш учун қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини баҳолаш марказлари рухсат этилмаган кўрсаткичларда берилаётган ҳар қандай маҳсулот микдорини оширувчи моддаларни табиатга беришни таъқиқлаш зарур. Юқорида келтирилганидек, табиатдан олинаётган ҳар қандай кўринишдаги истеъмоли маҳсулотлари истеъмоладан сўнг табиатга зарарсиз бойитилган ҳолатда қайтарилиши шарт.

Хулоса. Демак, чиқиндиларни қайта ишлашда доимий икки йўналишдаги мақсад кўзда тутилиши зарур: экологик ва иқтисодий. Демак, органик чиқиндиҳоналардан узоқ бўлмаган жойда чиқинди сақлаш жойини ташкил этиш ва уни замонавий талаб:-атмосферага чиқариладиган аммиак микдорини талаб даражасидан ўтишига йўл қўймаслик; органик чиқинди таркибидаги суюқликни ер ости сувларига сизмаслигини таъминлаш; атмосферага чиқариладиган ноҳуш ҳиднинг минимизациясини таъминлаш, мақсадга мувофиқ [1]. Сифат жиҳатидан янги асосда табиат билан ўзаро муносабатларни кафолатлайдиган ҳаёт тарзини ва атроф-муҳитга муносабатнинг янги тизимини аста-секин шакллантириш атроф- муҳитнинг экологик барқарор бўлиб хизмат қилиши мумкин.

АДАБИЁТЛАР:

1. Усмонов К. Ўзбекистон шароитида парранда органик чиқиндиларидан биогаз олиш асослари. /Монография/ ISBN 978-9943-8963-6-9. Бухоро-2022.– 160 б.
2. Имомов Ш., Усмонов К. Биогаз: экология органик ўғит.–Тошкент: “FARZAY-POLIGRAF”, Тошкент 2016, 258 стр. ISBN 978-9943-992-23-8.
3. Биогаз қурилмасининг вақтинчалик технологик регламенти. TR16472899-031:2016 /т.ф.д., академик А.Салимов тахрири остида//Имомов Ш., Усмонов К., Хақимов Б., Худойбердиев А., Эргашов З. «Ўзбекнефтгаз миллий холдинг компанияси» Бухоро нефть қайта ишлаш заводи, 2016–48 б.
4. masek.donto.ru>biogaz/biogas-historv.html

MAKTAB O'QUVCHILARINI HAYOT XAVFSIZLIGI QOIDALARI B'OYICHA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Saidxanova Nazokat Joldasovna,
dotsent,

“Toshkent irrigasiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti,

Utefov Burxan Bektursinovich,
texnika fanlari nomzodi, dotsent,

“Toshkent irrigasiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz aholisini turli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishni yuqori darajalarga ko'tarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida hayot xavfsizligi asoslari kursini o'qitishning asosiy maqsadi sodir bo'layotgan xavflarni hisobga olgan holda zamonaviy jamiyatda o'quvchilarni himoya qilish tizimiga ta'sir ko'rsatish, ularda xavfsizlik asoslarini shakllantirish, madaniyatni rivojlantirishga e'tibor qaratgan holda jamiyat qadriyatlariga yo'naltirishdir, bu esa birgalikda ijobiy ta'sir ko'rsatadigan ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida “Hayot xavfsizligi asoslari” qoidalarini o'qitish naqadar dolzarbligini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: o'quvchi, favqulodda vaziyat, atrof-muhit, xavf, xavfsizlik, ta'lim jarayoni, amaliy ko'nikma, xavfsizlikni ta'minlash.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ ШКОЛЬНИКОВ ПО ПРАВИЛАМ БЕЗОПАСНОСТИ ЖИЗНЕДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Сайдханова Назокат Жолдасовна,
доцент,

Национальный исследовательский университет
“Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства”,

Утепов Бурхан Бектурсинович,
кандидат технических наук, доцент,

Национальный исследовательский университет
“Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства”.

Аннотация. В данной статье повышение защищенности населения нашей страны от различных чрезвычайных ситуаций на более высокий уровень рассматривается как один из приоритетов государственной политики. Основная цель преподавания курса «Основы безопасности жизнедеятельности» в общеобразовательных школах – повлиять на систему защиты учащихся в современном обществе с учетом возникающих опасностей, сосредоточить внимание на формировании у них основ безопасности, развитии культуры. Сосредоточение внимания на ценностях общества, что помогает развивать навыки и способности, которые вместе оказывают положительное влияние. В статье мы видим, насколько актуально преподавание правил «Основы безопасности жизнедеятельности» в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: студент, чрезвычайная ситуация, окружающая среда, риск, безопасность, учебный процесс, практические навыки, безопасность.

PEDAGOGICAL FEATURES OF PREPARING SCHOOLCHILDREN ACCORDING TO THE RULES OF LIFE SAFETY

Saidkhanova Nazokat Joldasovna
Associate Professor,

National Research University “Tashkent institute of irrigation and agricultural mechanization engineers”

Utefov Burxan Bektursinovich
Associate Professor,

National Research University “Tashkent institute of irrigation and agricultural mechanization engineers”

Annotation. In this article, increasing the protection of the population of our country from various emergency situations to a higher level is considered as one of the priorities of state policy. The main goal of teaching the course “Fundamentals of Life Safety” in secondary schools is to influence the system of protection of students in modern society, taking into account emerging dangers, to focus on the formation of the basics of safety in them, and the development of culture. Focusing on the values of society, which helps develop skills and abilities that together have a positive impact. In the article we see how relevant it is to teach the rules of “Fundamentals of Life Safety” in secondary schools.

Key words. student, emergency, environment, risk, safety, educational process, practical skills, safety.

Kirish. Mamlakatimizdagi tinchlik va barqarorlik, mustaqillikning qadriga yetish, vatan taraqqiyoti uchun daxldorlik tuyg‘usini anglash, har qanday xavf-xatar va tahdidlarning oldini olishda puxta o‘ylangan ta‘lim tizim asosida tashkil etish va ularning ta‘sirchanligini keskin kuchaytirishni bugun boshimizdan kechirayotgan hayotning o‘zi taqozo etmoqda. “Hayot xavfsizligi asoslari” kursi O‘zbekiston Respublikasining “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”, “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”, “Ta‘lim to‘g‘risida”, “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida”, “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida”, “Xavfli ishlab chiqarish ob‘yektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida”, “Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida”, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta‘minlash to‘g‘risida”gi Qonunlari va h.k., shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining bir qator qarorlari va fuqarolarning xavfsizligini ta‘minlash sohasidagi boshqa me‘yoriy hujjatlar talablarini amalga oshiradi.

Muammoning qo‘yilishi. O‘zbekiston Respublikasining fuqaro muhofazasiga oid qonun va qarorlarini amalga oshirilishini ta‘minlashda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida “Hayot xavfsizligi asoslari” kursini o‘qitishni tashkil etish va ta‘limning uzluksizligini ta‘minlash shu kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Ammo, bugungi kunga qadar pedagogik nazariyada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida hayot xavfsizligi qoidalarini o‘quv fanlari kesimida o‘rgatishda o‘qituvchilar asosan an‘anaviy ish shakllariga murojaat qilishlari va yangi usul va uslublarni joriy etishga e‘tibor bermasliklari bois, o‘quv jarayonida o‘quvchilarning faolligi va mustaqilligini pasayishiga olib kelmoqda. Ta‘lim tizimida o‘quvchilarning xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan muammolarni xal qilishda interfaol usullarni o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va ulardan samarali foydalanish yo‘llarini aniqlashni talab etadi, ushbu ilmiy tadqiqot ishini amalga oshirishni maqsadga muvofiqligini belgilaydi. Ayni shu maqsadda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 19 iyuldagi 208-sonli qarorida aholiga favqulodda vaziyatlar va ular sodir bo‘lganda to‘g‘ri harakatlanishga oid bilim-malakalarni izchil singdirish va ularga bu kabi vaziyatlarga ham ruhan, ham jismonan shay turishdek oliy maqsad ko‘zlangan [4].

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida adabiyotlarda madaniyat va shaxsiy xavfsizlikni shakllantirish, hayot

xavfsizligini o‘rgatish jarayonlarining uzluksizligini ta‘minlash va shaxsiy xavfsizlik madaniyatini tarbiyalash muammosining dolzarbligi tobora kuchayib bormoqda.

Statistik tahlillarga ko‘ra, respublikamiz hududida oxirgi yillar davomida tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlardan ko‘rilgan moddiy zarar 1,498 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Bu tabiiy favqulodda vaziyatlar asosan, respublikamizning tog‘li viloyatlarida (Toshkent, Qashqadaryo, Namangan, Farg‘ona, Samarqand, Surxondaryo, Jizzax) erta bahorda sel kelishi, suv toshqinlari va tog‘ ko‘chkilaridan iborat bo‘lgan. Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarning ko‘payganligi ham alohida e‘tibor talab etadi. O‘rganilgan yil davomida texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar oqibatida halok bo‘lgan soni 258 tani tashkil etgan, shulardan: Yo‘l transport hodisalarida -176 ta; Yong‘inlarda - 43ta; Suvda cho‘kish inson o‘limi bilan bog‘liq - 25 ta; Portlashlarda -5 ta; Temir yo‘l o‘tish tunellarida va ko‘priklardagi transport avariylarida - 5ta; Binolarni konstruksiyalari va inshootlarining to‘satdan qulashi oqibatida - 4 ta; Bu texnogen favqulodda vaziyatlarda 257 nafar inson jabrlangan va mamlakat iqtisodiyotiga yetkazilgan zarar 9,589 mlrd. so‘mni tashkil etgan[5].

Tadqiqot natijalari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida va Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga oid ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar qatorida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlarining ham belgilanganligi FVDTning yanada takomillashtiradi [3,6]. FVDT yaxlit milliy tizim sifatida respublikamiz aholisi va hududlarini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish maqsad va vazifalari yo‘lida keng qamrovli va samarali faoliyat yuritir ekan amaliyotda yuzaga kelayotgan muammoli masalalar va huquqiy bo‘shliqlarni hal etish, tizimni inson-jamiyat-davlat tamoyili asosida tartibga solish va rivojlantirish yuzasidan davlat siyosati darajasida meyoriy-huquqiy, tashkiliy-amaliy hamda ta‘minot chora-tadbirlari ko‘rib boriladi. Bunda yetakchilik va tashabbuskorlik maxsus vakolatli boshqaruv organi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan tashkiliy-metodik jihatdan amalga oshiriladi.

Xavfsizlik insonning ob‘yektiv ehtiyoji sifatida qaraladi, bu uning butun hayot jarayoni davomida uning har tomonlama himoya qilishini belgilaydi.

Shuningdek, xavfsizlik deganda insonning tashqi ta’sirlardan qo‘rqmasdan o‘zini to‘liq anglashiga imkon

beradigan himoyani olishga qaratilgan ob'yektiv inson ehtiyoji tushuniladi. Zamonaviy jamiyat doirasida jamiyat va umuman odamlar xavfsizligiga salbiy ta'sir qiladigan tabiiy sharoitlarning yomonlashishi, texnogen ofatlarning rivojlanishi bilan belgilanadigan holatlar sababli jamiyat oldida xavfsizlikka bo'lgan muhim ehtiyoj shakllandi.

Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida yaqinda paydo bo'lgan, ammo tezda o'zini fanlar kesimida o'rgatish zarurligi sifatida namoyon etgan "Hayot xavfsizligi asoslari" kursiga alohida e'tibor qaratildi, bu esa uning o'quv jarayonida davom etishiga olib keldi.

Shuni ta'kidlash mumkinki, ushbu kurs o'ziga xosdir, chunki uning rivojlanishi jamiyat talabi bilan bog'liq, chunki o'quvchilarda nafaqat xavfsizlik to'g'risida nazariy tushunchalarni shakllantirish, balki o'zlarini himoya qilish, uning usullari va shakllari to'g'risida amaliy g'oyani ishlab chiqish ham juda zarur hisoblanadi.

"Hayot xavfsizligi asoslari" kursi – bu xavfsizlik madaniyati va xavfsiz xulq-atvoriga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish orqali jamiyatimizni barqarorlashtirishning bir qator ijtimoiy muammolarini rejalashtirilgan hal qilish uchun samarali vositadir. "Hayot xavfsizligi asoslari" kursi orqali fuqaro ongida huquqiy asos, axloq va odob normalari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan xavfsizlik madaniyati mafkurasiga asoslangan O'zbekistonning rivojlanishining hayotiy ijobiy va konstruktiv konsepsiyasi shakllantiriladi.

Hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib, "Hayot xavfsizligi asoslari" kursining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: o'quvchilarda yuksak ma'naviy-ruhiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish, xavf-xatar va favqulodda vaziyatlarga psixologik qarshilik ko'rsatish, atrof-muhit va o'z sog'lig'iga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini favqulodda vaziyatlarning oldini olish, tabiiy ofatlar, avariya va halokatlar oqibatlarini muvaffaqiyatli bartaraf etish, shuningdek, ularda iloji boricha ishtirok etish zarurligiga ishonch hosil qilish uchun ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligiga o'rgatish birdek muhimdir. Binobarin, umumta'lim maktabining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarga maxsus bilimlarni berish, ularning xavfsiz hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.

"Hayot xavfsizligi asoslari" kursini o'rganish o'quvchilarga xavf-xatarlar, prognozlash, favqulodda va xavfli vaziyatlarda xatti-harakatlar to'g'risida tizimli tushunchaga ega bo'lish, ushbu vaziyatlarning oqibatlarining odamlar hayoti va sog'lig'iga ta'sirini baholash va ularning imkoniyatlarini hisobga olgan holda xavfsiz xatti-harakatlar algoritmlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Xavfsizlik va sog'liqni saqlash sohasidagi bilimlarni oshirish bilan bir qatorda, shaxsning ma'naviy va axloqiy tasavvurlarini oshirish, psixologik, shuningdek, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga e'tibor qaratish zarur. Bularning hammasi tahdid va xavflarni kamaytirishga imkon beradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan yosh avlodni ham ma'nan, ham jismonan barkamol etib tarbiyalashga

muhim e'tibor qaratib kelinmoqda. Xususan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasining to'rtinchi, ya'ni – "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" bo'limida "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" vazifalari belgilab berildi [1].

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning shaxsiy hayot xavfsizligi sohasida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlariga oid yangi davlat ta'lim standartlari joriy etilishi bilan birga, ushbu kursning yangi maqsad va vazifalari paydo bo'ladi. To'g'ri ish uslubini tezda tanlash, o'zi uchun oqilona taktik harakatlarni aniqlash va amalda qo'llash, shuningdek, salbiy vaziyatlarni oldindan ko'ra bilish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularga maqbul yechimlarni topish qobiliyatiga ega, keng qamrovli ta'lim (falsafa, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, tibbiyot, pedagogika, o'qitish metodikasi va boshqalar)ga asoslangan yangi sifatdagi kadrlar tayyorlashni ta'minlash zarur.

Shunday ekan, bu jarayon o'ta aniq maqsad va vazifalarni belgilash asosida amalga oshirilmog'i zarur. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda "Hayot xavfsizligi asoslari" kursidagi ilmiy yangiliklarga tayangan holda, mavjud holatni ilmiy-nazariy o'rganish, mazmungan boyitish, takomillashtirish hamda islohotlar talablariga to'la javob beradigan darajaga keltirish tamoyillariga asoslanish zarur. Tizimning muvaffaqiyati fanlarning o'qitilish sifati, fanlar o'rtasidagi o'zaro integratsiya, "uzluksiz tarbiya ob'yekti va sub'yekti" bo'lgan o'quvchilarning kamoloti, ongu tafakkurini yuksaltirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonining samarali tashkil etilishiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda o'quvchilarning dunyoqarashini boyitish, ularda Vatanga sadoqat, uning taraqqiyotiga daxldorlik hissi, milliy g'ururni shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish, yuqori intellekt hamda yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalash hamda xavfsizligini ta'minlash umumiy o'rta ta'lim maktab tizimida o'qitilayotgan "Hayot xavfsizligi asoslari" kursining oldida turgan muhim vazifalardan biridir. O'quvchilarning shaxsiy va motivatsion sohasini shakllantirish va rivojlantirishda, birinchi navbatda, xavfsizlik masalalarining dolzarbligi va uni kundalik hayotda ta'minlash bilan belgilanadi.

Bugungi kunga kelib, inson faoliyatidan kelib chiqadigan bir qator global tahdidlar aniqlangan. Hatto tabiiy muhitni asta-sekin o'zgartiradigan, lekin ayni paytda hamma joyda tabiiy ekotizimlarni yo'q qiladigan sanoat va qishloq xo'jaligining ilgari xavfsiz (cheklangan foydalanishda) texnologiyalaridan foydalanish, global falokat bilan tahdid qila boshladi. Shuning uchun ham bugungi kunda hayot xavfsizligi sohasidagi ta'lim zamonaviy maktabni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Hayot xavf-xatarga to'la. Uni to'g'ri baholay olmaslik juda yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Hozirgi vaqtda inson tabiiy, texnik, iqtisodiy va boshqa har xil xavf-xatar dunyosida yashaydi va ishlaydi. Shu xavf-hatarlar natijasida juda ko'p insonlar nogiron bo'lib qoladilar, kasallanadi va hayotdan ko'z

yumadilar. Ana shunday xavf-xatarlardan jamiyatni, shaxsni va davlatni himoya qilishni “Hayot xavfsizligi asoslari” kursi o’rgatadi [7; 18-b].

Xavf - jahon hamjamiyati, alohida davlat va jamiyatning turli ijtimoiy guruh hamda fuqarolariga zarar keltiradigan, ularning moddiy va ma’naviy qadriyatlariga putur yetkazishi, rivojlanish yo’liga to’g’anoq bo’lishi mumkin bo’lgan ehtimoldagi yoki aniq voqea, hodisa yoki jarayon [7; 42-b].

Xavf – hayot-faoliyat xavfsizligining markaziy tushunchasidir. Ma’lum bir shart-sharoitlarda inson hayoti va sog’lig’iga to’g’ridan-to’g’ri yoki bilvosita zararli ta’sir qiluvchi hodisa, voqea, jarayonlar, ob’yektlar va boshqalarga xavf deb aytiladi.

Davlat ta’lim standarti talablariga asosan umumiy o’rta ta’lim maktab o’quvchilarida sog’lom va xavfsiz turmush tarzini shakllantirish, odamlarning hayoti va sog’lig’iga tahdid soladigan favqulodda vaziyatlarda muhofazalanish, transportda va yo’llarda o’zini tutish, jabrlanganlarga birinchi yordam ko’rsatish, jamoaviy va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalari va usullarini o’rgatish va amaliy faoliyatni rivojlantirish ko’nikmasini hosil qilish hisoblanadi.

Shu bilan birga, atrofdagi voqelik, xavfsizlikning o’ziga xos xususiyatlari, sog’lom turmush tarzi, vatanparvarlik, axloqiy rivojlanish zarurati va boshqalar haqida ob’ektiv g’oyalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Inson faoliyatining atrof-muhit bilan aloqasi, mehnat faoliyatidagi xavfsizligi va favqulodda vaziyatlardagi xavfsizligi bo’limlarini qamrab olgandir. “Hayot xavfsizligi

asoslari”ning prinsip va usullar asosida: baxtsiz hodisalar, qurbonlar va ular natijasida kelib chiqadigan zararlarni kamaytirish masalalarini keng miqyosda qo’yadigan va hal qiladigan kursdir. “Hayot xavfsizligi asoslari” - bu har qanday ko’rinishdagi faoliyatda qo’llanishi mumkin bo’lgan xavfsizlikning nazariy asosidir.

Xulosa. O’quvchi yoshlarni mustaqil fikrlash ko’nikmasi bilan bilimlarini egallashga erishish “Hayot xavfsizligi asoslari” kursining muhim qismidir. Mazkur vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishda yana bir omilning mavjudligi, ya’ni, uzluksiz ta’lim tizimida pedagog-o’qituvchilar tomonidan zamonaviy ta’lim texnologiyalarining mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta’lim jarayonida samarali qo’llay olishlari, shuningdek ta’lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi muhim ahamiyat kasb etadi. Insonni hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlashda, ilmiy-nazariy izlanishlar asosida vujudga kelgan qonunlar, nizomlar, standartlar, ko’rsatmalar, qoidalar va sanitar-texnik me’yorlar hamda ularni o’rganish bo’yicha uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimini vujudga keltirish, uni rivojlantirish muhim o’rin tutadi.

Hozirgi kunda “Hayot xavfsizligi asoslari” kursini o’qitish tizimini mukammallashtirish va sohalaridagi barcha islohotlarning asosiy maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishga qaratilgandir. Shundan kelib chiqqan holda mazkur kursning rivojlanishi borasida respublikamizda keng qamrovli ilmiy-amaliy izlanishlar va tadqiqotlar olib borilmoqda [8].

ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF-4947-son Farmoni.
2. O’zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-avgustdagi “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to’g’risida”gi Qonuni.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-son Farmoni.
4. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 19-iyulda “Aholini zilzilalar oqibatida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlarda (tabiiy va texnogen tusdagi) harakat qilishga tayyorlash kompleks dasturini tasdiqlash to’g’risida”gi 208-sonli Qarori.
5. O’zbekiston Respublikasi FVV byulleten’ – ma’lumotlar bazasi. 2022. №3, 4.
6. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi “O’zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 171-sonli Qarori.
7. Xusanova S.I. Umumiy o’rta ta’lim maktablarida “Hayot xavfsizligi asoslari” kursi mavzulari orasidagi uzviylikni ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish. Ped.fan.dok.diss. -T., 2021. -329 b.
8. Saidxonova N.J. Ta’lim jarayonida “Hayot xavfsizligi asoslari” qoidalarining fanlar tizimida tutgan o’rni// “Hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlashda innovatsion yondashuv, ilmiy ishlanmalar va zamonaviy texnologiyalar” mavzusidagi III Respublika yosh olimlar ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami FVVA 2021 yil 30 mart 249-253 b.

“TEXNOSFERA XAVFSIZLIGI” JURNALIDA CHOP ETISH UCHUN MAQOLALARNI RASMIYLASHTIRISH BO‘YICHA UMUMIY QO‘YILADIGAN QOIDALAR VA TALABLAR

1. Jurnalning maqsad va vazifalari: Mamlakatimizda inson va jamiyat xavfsizligini ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar, iqtisodiyotning barcha sohalarida xavfsiz, qulay mehnat sharoitlarini yaratish, har bir sohaning o'ziga xos shart-sharoitlarini hisobga olgan holda sanitariya-gigiena me'yori, texnika va elektr xavfsizligi bo'yicha tegishli me'yoriy va qonuniy huquqiy xujjatlarni takomillashtirish hamda ularni nazorati, favqulodda vaziyatlarda aholi xavfsizligini ta'minlash, favqulodda vaziyatlar sharoitida insonlarni hatti-harakati, yong'inlarni oldini olish va bartaraf etish, global iqlim o'zgarishi va ekologik xavfsizlikni ta'minlash muammolari, xavfsizlikni ta'minlash sohasida kadrlar tayyorlash muammolari hamda xavfsizlikni ta'minlash tizimlarni modellashtirish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va ularning ijrosiga doir sharhlovchi ilmiy-amaliy, tahliliy-tavsiyaviy yo'nalishdagi maqolalarni o'z sahifalarida yoritishdir.

Respublikamizning barcha sohalarida xavfsizlikni ta'minlashning mavjud muammolari echimini keng ommaga targ'ib etadi, xavflarning oldini olishning intellektual salohiyatini oshiradi, barcha sohalaridagi texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi xodimlariga iqtisodiy-huquqiy, ilmiy tavsiya yo'nalishidagi maslahatlarni beradi.

“Texnosfera xavfsizligi” ilmiy-texnik jurnalida yoritiluvchi tematikalar:

- Ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi muammolari;
- Favqulodda vaziyatlar aholi xavfsizligini ta'minlash muammolari;
- Yong'in xavfsizligi muammolari;
- Ekologik xavfsizlik va uni ta'minlash muammolari;
- Xavfsizlikni ta'minlash sohasida kadrlarni tayyorlash muammolari;
- Ishlab chiqarishda xavfsizlikni ta'minlashni modellashtirish;
- Xavfsizlikni ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar.

2. Etika me'yori va mualliflik huquqi.

Tahririyatga taqdim etilgan materiallar ilgari boshqa nashrlarda chop etilgan yoki boshqa nashrlarda ko'rib chiqilayotgan bo'lmisligi kerak. Shuning uchun muallif tahririyatga ushbu shaklda nashr etish uchun taqdim etgan materialini barcha hammualliflar va ish bajarilgan tashkilot nomidan kafolatlanishi kerak. Nashrga qabul qilingan maqolani jurnal tahririyatining yozma roziligisiz ularni boshqa tillarga tarjima qilib takroran chop etmaslik kafolatini oladi. Shuningdek, muallif jurnalning etika me'yori bilan tanishganligi, roziligi va keltirilgan barcha mas'uliyatlarni zimmasiga olganligini tasdiqlashi kerak.

3. “Texnosfera xavfsizligi” ilmiy-texnik jurnali tahririyati umumiy sharhdan va axborot shaklidagi ilmiy maqolalarni nashr uchun qabul qilmaydi.

Muallif tomonidan tahririyatga taqdim etilayotgan maqolani chop etish mumkinligi haqidagi ekspert xulosasini ham taqdim etishi kerak.

4. Maqolaning yozilish tili, tuzilishi va tarkibi

Maqolalar o'zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi. Maqola keng ommaga uchun tushunarli tilda, grammatika qoidalariga amal qilgan holda yozilgan bo'lishi kerak. Maqola o'zida muayyan ilmiy tadqiqotning tugal echimlarini yoki uning bosqichlarini ifodalashi zarur. Sarlavha maqolaning mazmuni to'g'risida axborot bera olishi, imkon qadar qisqa bo'lishi va umumiy so'zlardan iborat bo'lib qolmasligi kerak. Odatda ilmiy maqolada quyidagilar bo'lishi kerak:

- maqolaning sarlavhasi (uch tilda);
- annotatsiya (uch tilda);
- tayanch so'zlar (uch tilda);
- kirish, qaralayotgan muammoning hozirgi holatining tahlili va manbaalarga havolalar;
- masalaning qo'yilishi;
- yechish usuli (uslublari);
- natijalar tahlili va misollar;
- xulosa;
- foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;
- muallif(lar) to'g'risida ma'lumot.

Maqolada odatda qabul qilingan atamalardan foydalanish, yangi atama kiritganda, albatta uni aniq asoslab berish kerak.

Fizik kattaliklarning o'lchov birliklari Xalqaro o'lchamlar tizimi (SI) ga mos bo'lishi kerak.

Jurnalga ilgari e'lon qilinmagan maqolalar qabul qilinadi.

Maqolada muallif o'zining ishlariga havolalar soni haddan ziyod oshirib yubormasligi, ko'pi bilan 20–25 foizgacha bo'lishi tavsiya etiladi. Agar o'z ishiga havolalar soni ko'payib ketsa, bu holatni asoslab berishi kerak.

Tahririyat ko'chirmachilik (plagiat), o'zgalarning ishlarini o'zlashtirib olishga salbiy qaraydi. Shuning uchun mualliflardan ishga jiddiy munosabatda bo'lishi va havola qilish qoidalariga bo'ysunishi: kvadrat qavs ichida bibliografik havolani qo'yishni yoddan chiqarmasligi so'raladi.

5. Maqolaga qo'yiladigan texnik talablar

Maqolaning sarlavhasi, muallif(lar) va u(lar)ning lavozimi, ilmiy darajasi va ish joyi, annotatsiya, tayanch so'zlar (uch tilda) bir ustunda yoziladi. Maqolaning qolgan matnlari ikki ustunda yoziladi.

Maqola MS Word 2003–2010 matn muharririda yozilishi va quyidagi ko'rsatkichlarga muvofiq qat'iy rasmiylashtirilishi kerak:

- A4 formatda;
- matn sahifasining chekkalarida 2 sm. dan joy qoldiriladi;
- Times New Roman shriftida;
- maqola uchun shrift hajmi - 12 pt, jadvallar bundan mustasno;
- jadvallar uchun shrift hajmi - 10 pt;
- qator oralig'i - 1,15 interval;
- matn sahifa kengligi bo'yicha tekislanadi;
- Xat boshi - 1 sm ("Tab" yoki "Probel" tugmalaridan foydalanmasdan)

Quyidagilarga ruxsat etilmaydi:

- sahifalarni raqamlash;
- matnda sahifani avtomatik bo'lishdan foydalanish;
- matnda avtomatik havolalardan foydalanish;
- avtomatik bo'g'in ko'chirish;
- kamdan-kam hollarda ishlatiladigan yoki qisqartma harflarni qo'llash.

Jadvallar MS Word dasturida yoziladi. Jadvalning tartib raqami va nomi jadvalning yuqorisida yoziladi.

Grafikli materiallar (rangli rasmlar, chizmalar, diagrammalar, fotosuratlar) o'zida tadqiqotning umumlashtirilgan materiallarini ifodalashi kerak. Grafikli materiallar yuqori sifatli bo'lishi kerak, agar zarurat tug'lsa, tahririyat ushbu materiallarni alohida faylda 300 dpi dan kam bo'lmagan o'lchamda jpg formatda taqdim etishni talab qilishi mumkin. Grafikli materialning nomi va tartib raqami pastki qismda keltirilishi zarur.

Formulalar va matematik belgilar MS Wordda o'rnatilgan formatli muharririda yoki MathType muharriri yordamida bajarilishi kerak.

Jadvallar, grafikli materiallar ko'rsatilgan maydondan chiqib ketmasligi lozim.

Tayanch so'zlar (o'zbek, rus, ingliz tillarida) – 5–10 ta so'z va iboralardan iborat bo'lishi kerak. Tayanch so'zlar va iboralar bir-biridan vergul bilan ajratiladi. Keltirilgan tanyach so'zlar tadqiqot mavzusini juda aniq aks ettirishi shart.

Annotatsiya (o'zbek, rus, ingliz tillarida) – annotatsiya hajmi 150–200 ta so'zdan iborat bo'lishi va maqolaning tuzilishini qisqacha ifodalovchi, axborot shaklida berilishi kerak. Annotatsiya boshqa tilga tarjima qilinganda ma'no va mazmun jihatidan asl matnga mos kelishi kerak. Bunda annotatsiyaning hajmi belgilangan so'zlar sonidan oshib ketishi mumkin.

Kirish. Kirish qismida tadqiqotlarning dolzarbligi va ob'ekti tavsiflanadi. Dunyo olimlari tomonidan chop etilgan ilmiy maqolalarning tahlili keltiriladi. Chop etilgan adabiyot manbalarida qo'yilgan ilmiy izlanishlarning echimi yo'qligi tasdiqlangan holda muallifning ilmiy ishlari qaysi olimlarning ishiga asoslanganligi ko'rsatiladi.

Adabiyotlar ro'yxati 10 tadan kam bo'lmagan manbalardan iborat bo'lishi kerak, topilishi qiyin bo'lgan va normativ hujjatlar, bundan tashqari internet manbalarida keltirilgan havolalar (davriy hujjatlar hisobga olinmaydi) bundan mustasno.

Adabiyotlar ro'yxatiga darsliklarlar, o'quv qo'llanmalarini kiritish mumkin emas. Ko'pchilik adabiyotlar ingliz tilida so'zlovchi xalqaro kitobxonlar uchun ochiq va tushunarli bo'lishi kerak.

Manbalarning ahamiyatligiga qattiq talablar qo'yiladi.

Masalaning qo'yilishi. Mavzu bo'yicha muammolarni echish uchun qanday rasmiy hujjatlarga muallif tayangan va qanday masalalarning echimi ko'zda tutilgan.

Yechish usuli (yoki uslublari). Bunda tanlangan usul batafsil tavsiflanadi. Keltirilgan yoki qo'llanilgan uslub boshqa tadqiqotchilar uchun ham tushunishga qulay bo'lishi kerak.

Natijalar. Natijalarni asosan jadvallar, grafklar va boshqa suratlar ko'rinishida keltirish tavsiya etiladi. Ushbu bo'lim olingan natijalarni tahlil qilish, ularni sharhlash, boshqa mualliflarning natijalari bilan solishtirishni o'z ichiga oladi. Natijalarda ilmiy-tadqiqotlar natijalari qisqacha umumlashtiriladi. Natijalar tadqiqotning ob'ekti parametrlari o'rtasidagi munosabatlar mualliflar tomonidan belgilangan maqolaning asosiy ilmiy natijalarini umumlashtiruvchi, sonli xulosalarni o'z ichiga oladi. Natijalar maqola boshida qo'yilgan vazifalar bilan mantiqan bog'langan bo'lishi kerak.

Xulosa. Ilmiy ishlarining qisqa natijalari keltiriladi, ularning ichida izlanishning usuli, yangi echimi, amaliyotda qo'llanishning natijalari iqtisodiy va boshqa ko'rsatkichlar bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini shakllantirish. Barcha manbalar maqolaning ichki qismida raqamlangan havola tarzida berilishi kerak. Matndagi havolalar kvadrat qavs ichida (masalan, [7], [9, 10]) keltiriladi. Barcha manbalarga matnda xavolalar berilishi kerak, aks holda maqola qaytariladi.

Muallif (lar) haqida ma'lumot: familiyasi, ismi, otasining ismi, lavozimi, ilmiy darajasi va ish joyi. Ushbu ma'lumotlar maqola taqdim etilgan o'zbek, rus tilida ham, ingliz tilida ham keltirilishi hamda maqolaning oxirida – adabiyotlar ro'yxatidan keyin joylashtirilishi kerak.

Maqolalarda keltirilgan ma'lumotlarning haqqoniyligiga muallif(lar) javobgardir.

Tahririyat manzili: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko'chasi, 39. "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti, G-bino, 604-xona.

Tel.: +99871 237-19-86, +99897-493-25-26. **E-mail:** technosphere@ttiame.uz.

Tahririyat.